

**Birjadan tashqari shartnomalar bo'yicha kafolatlangan hisob-kitob va kliring xizmatlarini
ko'rsatish tartibi to'g'risida**
NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-noyabrdagi "Iqtisodiyot tarmoqlarida birja mexanizmlaridan foydalanishni kengaytirish va birja savdosini tartibga solish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-430-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan va birjadan tashqari shartnomalar bo'yicha kafolatlangan hisob-kitob va kliring xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Qoidalarda quyidagi terminlar va tushunchalar qo'llaniladi:

aksept – ariza-aksept ommaviy ofertaga muvofiq shaxsning "O'zRTXB" AJ Hisob-kitob kliring palatasi (bundan buyon - HKKP) tomonidan hisob-kitob kliring bo'yicha unga ko'rsatiladigan xizmatlar uchun mazkur Qoidalarning shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilinishi haqidagi ariza-aksepti (xabarnomasi);

pul mablag'larini bloklash – bitim bo'yicha sotib oluvchilar va sotuvchilar majburiyatlarining to'liq bajarilishini ta'minlovchi pul mablag'lari harakatini bitim yopilgunga qadar to'xtatib qo'yish;

HKKP ikkilamchi hisobvarag'i - birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankda sotib oluvchilar va sotuvchilarining mablag'larini saqlash hamda bitimlar bo'yicha hisob- kitoblar o'tkazish uchun ochilgan birjaning talab qilib olinguncha ikkilamchi depozit hisobvaraqlari;

foydalanuvchining individual raqami (bundan buyon - FIR) - kliring ishtirokchisiga beriladigan noyob xos raqam;

kliring (hisob) registrlari - bitimlar tuzish va bitimlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishga mo'ljallangan pul mablag'lari qoldiqlari to'g'risida ma'lumotlarni hisobga olish, shuningdek kliring ishtirokchilarining bitimlar bo'yicha majburiyatları va talablari hisobini yuritishda foydalaniladigan HKKPning ichki elektron hisob registrlari;

hisob-kitob kliring palatasi (HKKP) - kliring elektron tizimi orqali birjadan tashqari tuzilgan bitimlar (bundan buyon - bitim) bo'yicha kliring, hisob-kitob va o'zaro hisobkitoblarini amalgalash oshirishni ta'minlovchi birjaning tarkibiy bo'linmasi;

kliring ishtirokchilarini ro'yxatga olish - mazkur Qoidalarga muvofiq kliring ishtirokchisiga hisob-kitob kliring xizmati ko'rsatish uchun unga shaxsiy hisobvaraqlari ochish, FIR berish va uni kliring ishtirokchilarini reyestriga kiritish jarayoni;

bo'sh pul mablag'lari - har bir kliring ishtirokchisining pul mablag'lari qoldig'i hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqa, mazkur Qoidalarga muvofiq HKKP tomonidan belgilanadigan, Birja va kontragentlar talablaridan bo'sh (blokshanmagan) qoldiq pul mablag'lari;

zakalat - kliring ishtirokchilarini amalgalash oshiradigan bitimlar bajarilishini kafolatlash uchun ular tomonidan HKKPga kiritiladigan kafolat ta'minoti mablag'lari;

Invoys (hisob-faktura) - xalqaro savdo amaliyotida sotuvchi tomonidan xaridorga taqdim etilgan tovarlar, shuningdek, ularning miqdori va narxi, rasmiy xususiyatlari, etkazib berish shartlari, jo'natuvchi va oluvchi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjat;

kontragent - bitim bo'yicha majburiyat olgan va bitimning boshqa tomoniga qarshi qo'yiladigan taraf - sotib oluvchi sotuvchi uchun va sotuvchi sotib oluvchi uchun;

kliring ishtirokchisi - kliring tizimiga aksept yo'llagan va mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda hisob-kitob kliring palatasida ro'yxatga olingan mijoz;

kliring elektron tizimi - mazkur Qoidalarga muvofiq kliringni amalgalash oshirish uchun mo'ljallangan dasturiy-texnik vositalar, ma'lumotlar bazalari, telekommunikatsiya vositalari hamda HKKP dasturiy ta'minoti yig'indisi;

elektron raqamli imzo (bundan buyon - ERI) - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikasiya qilish imkoniyatini beradigan imzo.

2-bob. Ishtirokchilarini ro'yxatga olish tartibi

3. Birjadan tashqari tuzilgan shartnomalar bo'yicha kafolatlangan hisob-kitob va kliring xizmatlarini olish uchun yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar birjaning HKKPda ro'yxatga olinadi.

4. HKKP barcha zarur hujjatlarni olgandan keyin bir ish kuni ichida arizachiga FIR beradi va tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarini hisobga olish uchun zarur bo'lgan tegishli shaxsiy hisobni ochadi.

5. Birja xizmat ko'rsatuvchi bankda kliring ishtirokchilarining pul mablag'lari hisobi uchun mo'ljallangan HKKP ikkilamchi hisobvarag'ini ochadi, ularning hisobi HKKPda alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

6. Kliring a'zosining shaxsiy hisobini yopish hisobvaraq egasi (yoki uning huquqiy vorisi) nomidan HKKP tomonidan amalga oshiriladi, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa.

7. Shaxsiy hisobvaraqn ni yopishdan oldin undagi qolgan mablag'lar qonun hujjatlariga muvofiq shaxsiy hisobvaraq egasining xizmat ko'rsatuvchi bankidagi hisob raqamlariga yoki uning ko'rsatmalarasi asosida LORO-hisob raqamiga o'tkaziladi.

Shaxsiy hisobni yopish shaxsiy hisobda mablag bo'Imagan taqdirdagina amalga oshiriladi.

8. Hisobvaraqlar egasi HKKPda quyidagi buyruqlarni berishga haqli:

shaxsiy hisobvarag'idan pul mablag'larini (mablag'larning bir qismini) xizmat ko'rsatuvchi bankdagi hisobraqamiga qaytarish;

bitimning kliringini amalga oshirish, bitim qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatga olingan bo'lsa.

9. HKKP tuzilgan shartnomalar bo'yicha o'zaro hisob-kitoblar orqali kliring ishtirokchilarining shaxsiy hisobvaraqlari bilan operatsiyalarni amalga oshiradi.

10. Ro'yxatdan o'tgandan so'ng, kliring a'zolari o'z majburiyatlarini bajarish uchun birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankda ochilgan HKKPning ikkilamchi hisob raqamlariga mablag'larni o'tkazadilar.

11. Kliring a'zosi pul mablag'larini depozit sifatida va/yoki shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun birjaga xizmat ko'rsatuvchi bankdagi HKKPning ikkilamchi hisobvaraqlariga o'zining shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazadi. Zakalat miqdori har bir alohida holatda tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi.

12. Kliring va HKKP ishtirokchilariga HKKP hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalangan holda, pulli talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish taqilanadi.

3-bob. Kliring ishtirokchilarining huquq va majburiyatları

13. Kliring ishtirokchilari quyidagi huquqlarga ega:

birjada ro'yxatga olingan bitimlar kliringida ishtirok etish;

shaxsiy hisobvarag'ining holati, majburiyatlarning bajarilishi to'g'risida zarur ma'lumotni olish;

kontragentning roziligi bilan tovar yetkazib berish bo'yicha majburiyatini muddatidan oldin bajarish;

o‘zining shaxsiy hisobvarag‘idagi bo‘sh pul mablag‘larini xizmat ko‘rsatuvchi bankidagi hisob raqamiga o‘tkazish;

14. Kliring ishtirokchisi quyidagilarni bajarishga majbur:

haqqoniy hujjatlar va ma’lumotlarni mazkur Qoidalarga muvofiq HKKPga taqdim qilish; shartnomalar bekor qilingan taqdirda, uning bekor qilinishidan oldin yuzaga kelgan majburiyatlarni bajarish;

axborotlar bo‘yicha maxfiylik rejimiga rioya qilish;

ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya qilish.

4-bob. HKKP ning kliring ishtirokchisi bilan o‘zaro munosabatlari

15. HKKP va kliring ishtirokchisi bilan o‘zaro munosabatlari kliring xizmati ko‘rsatish shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

16. Birja va kliring ishtirokchilari o‘rtasida kliring va hisob-kitoblar bo‘yicha, shuningdek kliring ishtirokchilari o‘rtasida shartnomaviy majburiyatlarni ijro etish bo‘yicha axborot almashinuvi birjaning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda elektron tizimi orqali amalga oshiriladi.

5-bob Birjadan tashqari shartnomalar tuzish tartibi

17. Birjadan tashqari shartnomalar shakli birja tomonidan ishlab chiqiladi va standart hisoblanadi. Tomonlar shartnomalarini alohida shartlar kiritish orqali to‘ldirishlari mumkin.

18. Shartnomalar tuzish uchun kliring ishtirokchisi o‘zining shaxsiy kabinetini orqali shartnomalarini tanlaydi va uni to‘ldirgandan so‘ng kontragentga yuboradi. Shartnomalarning alohida shartlar shartnomaning boshqa shartlariga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga zid bo‘lmashligi kerak.

19. Agar shartnomalar shartlari har ikki tomon tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa, shartnomalar tuzilgan deb e’tirof etiladi. Shu bilan birga, shartnomani tuzish vaqtida tomonlar o‘zlarining shaxsiy hisobvaraqlarida, zakalat miqdorida pul mablag‘lari mavjudligini ta’minlashlari shart.

20. Avtomatik ravishda tasdiqlash natijasida shartnomalar standart shaklda shakllantiriladi, taraflarining shaxsiy kabinetlariga yuboriladi, hamda tuzilgan shartnomalarning elektron reyestriga kiritish orqali ro‘yxatga olinadi.

21. Tuzilgan shartnomalar natijalariga ko‘ra, sotuvchining avans to‘lovlarini miqdorida va xaridorning birjasiga bitimning haqiqiy miqdori bo‘yicha komissiya olinadi.

6-bob. Birjadan tashqari shartnomalar bo‘yicha hisob-kitoblar tartibi

22. Xaridorlar shartnomalar bo‘yicha to‘lovni to‘liq amalga oshirish uchun shartnomada ko‘rsatilgan muddatda o‘zlarining HKKP dagi shaxsiy hisobvarag‘iga pul mablag‘larini o‘tkazadilar. Bunday holda, zakalat shartnomalar bo‘yicha to‘lov miqdorida hisobga olinadi.

23. HKKP shartnomalar bo‘yicha xaridordan olingan to‘lov miqdorini bloklaydi, va sotuvchiga pul mablag‘lari kelib tushgan kundan keyingi bir ish kunidan kechiktirmay elektron shaklda to‘lov to‘g‘risida habarnoma yuboradi. Ushbu xabarnoma sotuvchiga tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

24. Sotuvchi HKKP tomonidan habarnoma taqdim etilmasdan tovar yetkazib bergen taqdirda, tovar uchun to‘lovni amalga oshirish tavakkalchiligi sotuvchining zimmasida bo‘ladi.

25. Xaridor shartnomalar bo‘yicha tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) to‘liq qabul qilingan kunidan keyin uch ish kuni ichida, shaxsiy kabinetdan foydalangan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) qabul qiganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yuborishga majburdir.

26. Birja shartnomalar bo‘yicha to‘liq hajmda tovarlar (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berilganligi to‘g‘risida ma’lumot olgandan keyin bir ish kuni ichida:

elektron to‘lov topshiriqnomasini shakllantiradi va birjaning xizmat ko‘rsatuvchi bankiga jo‘natadi, bank uni olgandan keyin bir ish kuni ichida mablag‘larni sotuvchiga pul jo‘natadi; sotuvchining zakalatini bo‘shatadi;

xaridorning zakalatini bo‘shatadi va tegishli shaxsiy hisobvarag‘iga qaytaradi; shartnama bo‘yicha majburiyatlarning bajarilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni e’lon qiladi.

27. Agar xaridor shartnama bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish to‘g‘risida ma’lumotni taqdim etmasa, HKKP ushbu shartnama bo‘yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) etkazib berish muddati tugaganidan keyin uch ish kunidan keyin:

shartnama bo‘yicha xaridor tomonidan qo‘yilgan (zakalat miqdoridan tashqari) mablag‘larni bo‘shatadi;

Arbitraj komissiyasi tomonidan tegishli qaror qabul qilinmaguncha yoki uning tugatilishigacha sotuvchi va xaridorning zakalatlarini bloklaydi;

28. Arbitraj komissiyasining qarori asosida HKKP blokdan chiqaradi va/yoki zakalatni tegishli hisob raqamiga o‘tkazadi.

5-bob. Birja tashqari tuzilgan bitimlarining bajarilishini ta‘minlash tartibi

29. Shartnomani yopish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

Shartnama bo‘yicha kliring ishtirokchilari – sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan majburiyatlar lozim darajada bajarilganda;

Shartnama bo‘yicha kliring ishtirokchilari – sotuvchi va sotib oluvchi tomonidan majburiyatlar bajarilmaganda, jarima to‘langandan so‘ng;

kliring ishtirokchilari – sotuvchi va sotib oluvchining bitimni jarima to‘lagan/to‘lamagan holda yopishga o‘zaro rozi bo‘lganida;

Arbitraj komissiya qaroriga ko‘ra

kliring ishtirokchilari — sotuvchi va sotib oluvchining shartnomada ko‘rsatilgan muddat davomida e’tirozları bo‘lmaganda, jarimalarsiz;.

30. Agar kliring, ishtirokchisi shartnama shartlarida nazarda tutilgan muddatda, bitim bo‘yicha majburiyatlarni bajarmasa HKKP:

shartnomani xaridor tomonidan to‘lanmaganligi uchun bekor qiladi;

shartnomani Arbitraj komissiyasining qaroriga ko‘ra birja tovari yetkazib berilmaganligi yoki yuklab olib chiqilmaganligi uchun bekor qiladi;

kliring ishtirokchisi — sotuvchi yoki sotib oluvchining hisob raqamiga, shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganligi uchun zakalat miqdoridagi jarimani o‘tkazadi.

6-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

31. Mazkur Qoidalar va Birjaning boshqa ichki hujjalaring qo‘llanilishi, sharhanishi, buzilishi hamda tuzilgan bitimlarning bajarilishi yuzasidan birja va kliring ishtirokchilari o‘rtasida, shuningdek kliring ishtirokchilari o‘rtasida yuzaga keladigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar, Birjaning Arbitraj komissiyasida yoki sudda ko‘rib chiqish yo‘li bilan da’vo tartibida hal qilinadi.

32. Mazkur Nizomning talablarini buzilishida aybdor shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgar bo‘ladilar.